

## **O'QUVCHILARDA GIYOHVAND MODDALARGA RUJU QO'YISHNI OLDINI OLISHNING PSIXOLOGIK YECHIMLARI**

*Xidirov Dodomaxmud Xasanzoda*
*Farg'onan viloyati So'x tumani MMTB ga qarashli*
*22-maktab amaliyotchi psixolog*

**Annotatsiya:** Giyohvand yoki unga tenglashtirilgan vositalarga muntazam ruju qo'yish va tibbiy ko'rsatmalarsiz iste'mol qilish bo'lib, aslida giyohvandlik deviant xulqatvorning bir ko'rinishidir. Giyohvandlik (narkomaniya). Shaxsga va jamiyatga bugun buzg'unchi ta'sir ko'rsatuvchi, og'ir sotsial oqibatlariga ko'ra giyohvandlik asosiy o'rinni tutadi. Sotsiologik tadqiqotlar ko'rsatishicha, odamlar rohat olish, o'tkiz hissiyotlarga kirishish uchun giyohvand moddalarga berilib qoladilar.

**Kalit so'zlar:** giyohvandlik, yoshlar, deviant xulq-atvor, diagnostika, zaharli modda, sotsiologik tadqiqot, qaranlik

### **KIRISH**

Giyohvandlar asosan yoshlar ichida ko'p uchraydi. Tadqiqotlar yana shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik boshqa odamlar ta'siri ostida, asosan do'stlari, tanishlari orqali giyohvand moddalarga berilib qolmoqdalar. Xavfli tomni shundaki, narkotiklar qabul qilishni boshlanish etaplarida odam hech qanday yomon ta'sir, og'ir sezmaydi, aksincha giyohvand moddani qabul qilganda kayfiyat ko'tariladi. Jism shunday rohat oladiki, buni ko'pchilik sog'liqga yaxshi yordam beradi, tinchlantiradi deb o'ylaydi. Spirli ichimliklar bilan bog'liq giyohvandlik bilan og'rigan odamda tajovuzkorlik va nazoratsiz g'azab paydo bo'ladi. Ko'pincha, bu odam avval o'zini, keyin atrofidagi odamlarning ko'nglini qoldiradi. Deviant xatti-harakatni tashxislash uchun ba'zida odamning o'ziga qarash, uning mohiyatini aniqlash kifoya. Odamlarning o'zlarini sindirishlari va turli xil zaharli moddalarni olishni boshlashlari juda oddiy: ular dunyoda o'zlarining potentsiallarini anglay olmaydilar. Shaxsning deviant xattiharakati har doim uning atrofidagi odamlarning hayoti va farovonligiga zarar etkazadigan keskin salbiy ko'rinishlarning mavjudligini anglatadi.

Voyaga yetmaganlarning spirli ichimliklar yoki giyohvandlik vositalarini iste'mol qilishning oldini olish eng murakkab vazifalardan hisoblanadi. Spirli ichimliklar yoki giyohvandlik vositalarini iste'mol qilish inson aql-idrokining buzilishi, ya'ni kuchli hayajonlanish, g'azablanish, shavqatsizlik, befarqlik, qiziqishlar doirasining torayishi, eslab qolish, diqqat - e'tibor berish qobiliyatining pasayishi, jinsiy buzuqliqlarning asosiy sabablari hisoblanadi. Eng dahshatlisi, ushbu moddalarni surunkali iste'mol qiluvchilarning OITS kasalligiga chalinishi ehtimoli bir necha bor ortadi. Spirli ichimliklarni doimiy ravishda uzoq vaqt davomida iste'mol qilish

natijasida shaxsdagi intellektual va ahloqiy fazilatlar yo'qolib boradi, ijtimoiy foydali narsalar o'rmini mast bo'lishga intilish egallab oladi. Frantsuz olimi Morel alkogolizm bilan kasallangan shaxsning to'rtta avlodini tekshirib ko'rgan. Mazkur tadqiqot natijalari ham hayratlanarlidir, birinchi avlod vakillarining ahloqi buzilgan; ikkinchi avlodni tom ma'noda alkogolizmga chalingan; uchinchi avlod vakillari vahima kasalligi va g'amginlikka mubtalo bo'lганlar bo'lib, odam o'ldirish va o'z-o'zini o'ldirishga moyil kishilardir, to'rtinchi avlodda esa aqli zaiflar, tentaklar, bepushtlar bo'lgan. Ushbu kuzatishlari asosida u alkogolizm jamiyat a'zosini jismonan va ruhan buzadi, degan xulosaga keladi. Voyaga yetmaganlarning spirtli ichimliklar va giyohvandlik vositalariga ruju qo'yishining asosiy ijtimoiy sabablari ham mavjud. Bularga notinich oilalar, shaxs yashayotgan muhit, jamiyatning munosabati va o'tish davridagi iqtisodiy qiyinchiliklar va boshqa muammolar kiradi. Shuningdek, hozirgi kunda alkogolizm yoki giyohvandlik vositalarini iste'mol qiluvchi voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etish hollari kuzatilmoqda

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra dunyoda 500 milliondan ortiq odam giyohvandlik dardiga yo'liqqan. Uning aksariyat qismini 30 yoshgacha bo'lганlar tashkil etadi. Buning oqibatida har yili 200 mingdan ortiq kishi hayotdan ko'z yumadi. Shu bilan birga, jahonda sodir etilayotgan jinoyatlarning 57 foizi giyohvandlar hissasiga to'g'ri keladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 96-moddasiga muvofiq, alkogolizm, giyohvandlikka yo'liqqan shaxslar tomonidan jinoyat sodir etilgan taqdirda, agar tibbiy xulosa mavjud bo'lsa, sud jazo chorasi bilan birga ularga tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini ham tayinlashi mumkin. Jamiyatda, oilada voyaga yetmaganlarning spirtli ichimliklarga, giyohvandlik vositalariga nisbatan salbiy qarashlari uchun vaziyat yaratilishi lozim, bunday yashash sharoitini umuman qabul qilmaslik, ularda ixtiyoriy davolanishga imkoniyat tug'dirish va kelajakda spirtli ichimliklar va giyohvandlik vositalaridan umuman voz kechishiga erishish lozim.

Shunindek, narkotik moddalarining noqonuniy tarqalishining oldini olish va ularning mahfiy bozori bilan qattiq va qat'iyat bilan kurashish, giyohvandlik yoki alkogolizm kasalligidan azoblanayotgan shaxslarga insonparvarcha munosabatda bo'lish lozim. Narkotik moddalari tarqalishinining oldini olishda ko'proq ularning ziyonligi haqida aholini, asosan voyaga yetmagan shaxslarni ogohlandirish katta ahamiyatga ega. Voyaga yetmagan shaxsni jazolashdan ko'ra, uni davolash maqsadga muvofiq bo'lar edi. Masalan, alkogolizm yoki giyohvandlik kasalligiga chalingan, jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarga majburiy ambulatoriya kuzatuvida bo'lish yoki narkolog mutaxassisida davolash chorasini qo'llash mumkin va ushbu majburlov chorasi jinoiy jazoga nisbatan yaxshi samara beradi, deb o'ylayman. Giyohvandlik moddalariga ruju qo'ygan voyaga yetmaganlarni jazolashdan tashqari ommaviy axborot vositalari yordamida tarbiyaviy ishlarni olib borish muhim ahamiyatga ega.

Deviant xatti-harakatlarning diagnostikasi mutaxassislar tomonidan olib borilishi kerak bo'lgan juda murakkab va ko'p vaqt talab qiladigan jarayondir. Ularning orzularini buzmaslik, o'zlariga va o'zlarining istiqbollariga bo'lgan ishonchni buzmaslik uchun siz bolalar va o'smirlar bilan juda ehtiyoj bo'lisingiz kerak. Deviant xatti-harakatlarning sabablari butunlay boshqacha bo'lishi mumkin. Keyinchalik oqibatlarni to'g'irlashga urinishdan ko'ra, bunday og'ishning rivojlanishini oldini olish yaxshiroqdir. Deviant xatti-harakatlarning diagnostikasi patologik belgilarni o'z vaqtida aniqlash va ularning rivojlanishining oldini olishni o'z ichiga oladi.

### **XULOSA**

Har qanday salbiy ko'rinishlarga qarshi kurash, shuningdek, deviant xatti-harakatlarning oldini olish nafaqat huquqni muhofaza qilish idoralari, balki boshqa davlat va jamoat tuzilmalari va muassasalari, shu jumladan yoshlar va o'spirinlar uchun ijtimoiy xizmatlar faoliyatining eng muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.Ushbu markazlarning faoliyati quyidagi tamoyillarga asoslanishi kerak: deviant xulq-atvorni to'g'irlashning tibbiy-psixologik va ijtimoiy-pedagogik usullari bilan birgalikda o'spirinlar o'rtasida huquqbazarliklarning oldini olish; repressiya mexanizmini bosqichma-bosqich huquqbazarliklarning oldini olish bilan o'spirinlarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi choralar bilan almashtirish; xuddi shu nomdagi aloqa klublarini tashkil etish orqali yashash joyida o'spirinlar uchun aloqa muhitini yaratish.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Социальные причины девиантного поведения девочек-подростков в условиях трансформации российского общества: тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 22.00.04, кандидат социологических наук Мухамадеева, Зинфира
2. Фанисовна
3. Sulaymonov J.B., Karimov N. Contribution of Abu Isa Tirmidhi to the Science of Hadith //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering
4. (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9 Issue-1, November, 2019. P. 593-599
5. www. pedagog. Uz
6. Internet materiallari